

O'QUVCHILAR PSIXOLOGIYASIGA AXBOROTLARNI PSIXOLOGIK TA'SIRI MUAMMOSINING O'RGANILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7858259>

M.T. Isakova

Psixologiya fanlari doktori, dotsent

Xalimova Feruza Maxmudjon qizi

2-kurs psixologiya magistranti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Hozirgi zamon psixologiyasi ko'p tarmoqli psixologik bilimlar tizimidan iborat fan hisoblanib, o'zining tadqiqot predmetiga ega bo'lgan ko'plab sohalardan tashkil topganligi, yosh avlod dunyoqarashini kengaytirish va bilimni oshirishda mazkur axborot manbalari muhim ahamiyatga molikligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar.

psixologiya, xulq-atvor, jarayon, internet, ommaviy axborot, vositalari, dunyoqarash, predmet.

Psixologiya - bu odamlarning aqliy va xulq-atvor jarayonlarini va ularning jismoniy va ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlarini tahlil qilishga qaratilgan intizom. "Psixologiya" so'zi yunon tilidan olingan psixologik yoki ruhiyat, bu "ruh", "psixika" yoki "aqliy faoliyat" va boshqalarni anglatadi turar joy, bu "o'rganish" yoki "davolangan" degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun psixologiya psixikani o'rganish yoki risolani anglatadi.

Psixologiya – inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to'g'risidagi fan. Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kategoriyalar kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari – psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Mazkur vazifalar yechimini topishda psixologiya bir tomondan, biologiya fani sohalari bilan, jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantiq hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi. Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo'lmish ong va o'zini o'zi anglashni tadqiq etadi.

Hozirgi zamon psixologiyasi ko'p tarmoqli psixologik bilimlar tizimidan iborat fan hisoblanib, o'zining tadqiqot predmetiga ega bo'lgan ko'plab sohalardan tashkil topgan: umumiy psixologiya, aviatsiya psixologiyasi, harbiy psixologiya, differensial psixologiya, psixofiziologiya, muhandislik psixologiyasi, kosmik psixologiya, huquq psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, neyropsixologiya, patopsixologiya, pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, sport psixologiyasi, maxsus psixologiya, ijodiyot psixologiyasi, menejment psixologiyasi, marketing psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, yosh psixologiyasi, tashkiliy psixologiya, din psixologiyasi, oila psixologiyasi, psixologiya tarixi, genetik psixologiya, amaliy psixologiya, eksperimental psixologiya, kasb psixologiyasi, psixolingvistika, siyosiy psixologiya va boshqa psixologiyaning tarmoqlarga ajralishining asosiy sababi uning tarkibida tatbiqiy sohalar vujudga kelishidir. Psixologiya sanoatda, jamiyat boshqaruvida, ta'lim tizimida, sog'liqni saklash, madaniyat, sport, transport, radio, televideniye va boshqa tuzilmalarda muhim masalalarni hal qilishda faol ishtirok qilmoqda. Psixologiya erishgan yutuqlari shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ularni harakatga keltirishda alohida ahamiyat kasb qilmoqda hamda shu asnoda mehnat samaradorligini oshirishga ta'sir o'tkazmoqda. Zamonaviy psixologiyada elektron-hisoblash texnikasi, elektr va kimyoviy vositalar yordami bilan psixikani chuqur o'rganish kabilar qo'llanilmoqda.

Boshqa fanlarni o'rganish kabi, psixologiyani o'rganishning ham, avvalo, bilish, ma'lumot olish uchun ahamiyati bor. Biz psixologiyani o'rganib, voqelikning g'oyat katta va sifat jihatdan o'ziga xos sohasi - psixik hayot sohasi haqida bilim olamiz. Psixika qanday kelib chiqqan, hayvonot dunyosida psixik hayot shakllari qanday taraqqiy etgan, odam psixikasi tarixan qanday rivojlangan, har bir odam tug'ilish paytidan tortib uning ongi qaysi shart-sharoitlarga qarab taraqqiy etadi, xarakter qanday vujudga keladi, odamning qobiliyatlari qanday shakllanadi - psixologning ilmiy tadqiqotlari ana shu savollarimizga javob beradi. Odam tevarak-atrofdagi dunyoni qanday idrok etadi, u qanday esida qoldiradi, qanday esga tushiradi va fikr yuritadi, u qanday hislarni ko'nglidan kechiradi, odam tevarak-atrofdagi dunyoni o'z ehtiyojlariga moslashtirib, yangi moddiy va ma'naviy boyliklarni vujudga keltirib, qanday ish ko'radi - psixologiyani o'rganish bilan ana shu masalalarni bilib olamiz. Psixologiyani o'rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odam aqlini ham o'stirishga yordam beradi. Odam aqlini o'stirish, jumladan, yangi bilimlar va ko'nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal qilish qobiliyatini

takomillashtirishda, o'z fikrlarini nutqda to'g'ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to'g'ri tushuna bilishda ham o'z ifodasini topadi. Albatta, har bir fan bilan shug'ullanish odamni kamolga yetkazadi. Ammo psixologiya bu sohada alohida o'rin tutadi. Odam psixologiyani o'rganar ekan, avvalo o'z aqlidrokini, uning jarayonlarini bilib oladi, unga diqqat-e'tibor beradi, aqlning faoliyatini kuchaytiradigan shart-sharoitni bilib oladi va shu bilan o'z aql-idrokining ko'proq o'sishiga yordam beradi.

Biz yashab turgan yangi dunyoda texnologiyalar misli ko'rilmagan darajada rivojlanmoqda va kompyuterlar oddiy, hatto zarur narsalarga aylandi. Axborotning shaxs va jamiyatga yo'naltirilganligi. Etnik, milliy, va mintaqaviy muammolarga yo'naltirilgan psixologik, diniy va madaniy taxdidlar. Milliy nizo turlari va taxdidlar.

Axborot tizimida "falsifikatsiya metodi" (feyk)dan foydalanish. Axborot manbalaridan foydalanishda shaxs madaniyatini takomili. Ko'pmillatli jamiyatda tolerantlik, bag'rikenglik g'oyalariga tajovuz va taxdidlar. Hozirgi dunyoda terrorism, ekstremizm va diniy tahdidlar: moslashuv va mafkuraviy kurash. Axborot almashinuvining regulyativ funktsiyasi, xavf-xatar va tahdidlar. Axborot almashinuvida mikro, mezo, makro darajalari. Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka taxdid soluvchi: milliy, mafkuraviy va axborot xurujlarini bartaraf etishning zamonaviy mexanizm va texnologiyalari.

Xavfsizlik tushunchasi bevosita shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, ekologik, biologik tizimlarida normal faoliyat yuritishini kafolatlovchi tushunchadir. Ijtimoiy tuzilmaning, ya'ni, yaxlit jamiyatning xavfsizligi odamlar hayot tarzining sifatini, uning davomiyligini belgilovchi muhim mezondir. Bu o'rinda fanda bevosita xavfsizlik tushunchasiga yaqin ishlatiladigan bir qator tushunchalarga izoh berish joizdir.

Ijtimoiy xavfsizlik - jamiyatda mavjud bo'lgan turli ijtimoiy institutlar, jumladan, xavfsizlikni ta'minlash organlari, davlat muassalari, oila va mahalla tomonidan aholining turli ehtiyojlari, orzu-istaklari, maqsad-muddaolarini amalga oshirishlariga imkon berish bilan bog'liq vazifalarini o'z ichiga oladi. Bunda ayrim-alohida tabaqa yoki aholi qatlamining manfaatlari, ya'ni, ularning yaxshi yashashlari, uzoq umr ko'rishlari, bir xududdan ikkinchisiga ko'chib o'tishiga aloqador xavfsizlik nazarda tutilmaydi.

Axborot vositalarini afzalliklari haqida hamma biladi, aksariyat odamlar undan nafaqat ma'lumot qidirish, balki virtual olamga haqiqatdan qochish uchun ham foydalanadilar. Virtual borliq - bu inson tomonidan kompyuter

texnologiyalaridan foydalangan holda yaratilgan dunyo. Virtual reallikning so'ngi texnologiyalari sizga xayoliy dunyoga to'liq sho'ng'ish uchun ko'zoynak va dubulg'a yaratishga imkon beradi. Ular sizga haqiqiy hayotdan butunlay uzoqlashishga imkon beradi. Axborot vositalaridan foydalanish, o'smir shaxsida "o'qish" va "o'rganish"ga intilish o'rniga "izlash"ni afzal ko'rishni yuzaga keltiradi. Zamonaviy bolalar kompyuter o'yinlari olami hamda ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o'sib, ulg'aymoqda. Bu quvonarli hol albatta. Biroq har narsaning me'yori bo'lmog'i zarur. Bolalar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba'zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bo'lib qoladilar. Tabiiyki, bunday axborotlar qiziquvchan bola va o'smirni o'ziga ko'proq jalb etadi. Biror harakatni amalga oshirishda bolalarga qanchalik ruxsat etilmasa, ularda shunchalik yuqori darajada qiziqish uyg'onishi barchaga ma'lum. O'smirlar tarmoqdagi nosog'lom turmush tarzidan axborot beruvchi ayrim manbalarga duch kelsalar, yanada qiziqib, mazkur axborotlarga alohida e'tibor qaratishlari ehtimoldan holi emas.

Bugungi kunda Internet manbalari va OAV(ommaviy axborot vositalari) axborotlarining ijtimoiy hayotdagi o'рни tobora mustahkamlanib, jamiyat taraqqiyotining ko'z gusi, kishilar ongi, dunyoqarashi siyosiy saviyasini shakllantiruvchi asosiy omilga aylanmoqda. Endilikda demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati haqidagi konsepsiyalarni axborot sohasidagi islohotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ma'lumki, o'tgan asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan Internet tarmog'i axborot sohasida tub burilish yasadi. Endilikda an'anaviy OAV ning informatsion texnologiyalar asrida o'z mavqeini saqlab qolishi ko'p jihatdan global tarmoq imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi. Bu borada Yurtboshimiz alohida ta'kidlab, «... bugungi kunda milliy axborot tizimini shakllantirish jarayonida Internet va boshqa global axborot tizimlaridan keng foydalanish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish XXI asrda mamlakat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi...», – deya yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishga chaqirganlar.

Albatta, yosh avlod dunyoqarashini kengaytirish va bilimni oshirishda mazkur axborot manbalari muhim ahamiyatga molik. OAV va ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlari inkor etmagan holda, uning yoshlar orasida samarasiz, salbiy ta'sirga ega bo'lgan imkoniyati mavjudligini ham ta'kidlash lozim. Telekanallarda namoyish etilayotgan va ijaraga beriladigan hamda

sotiladigan minglab video, kasseta, lazer disklari vositasida tarqatilayotgan jangari filmlarda yashash uchun kurash g'oyasi targ'ib etiladi. Ularning yoshlar ongini zaharlash, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirish, milliy nigilizm va manqurtlikka muhtalo qilishi o'z-o'zidan ayon va ochiq haqiqatdir. Mazkur muammolarni yechishda, avvalo, OAV faoliyatini muvofiqlashtirish, ko'rsatuv, eshittirish va matbuot nashrlari, shuningdek, Internetdagi milliy tarmoq manbalarida berilayotgan axborotlar sifatiga, ayniqsa, ularning kontenti, ya'ni materiallar mazmuniga jiddiy e'tibor qaratish zarur.

Ta'kidlash lozimki, Internetdan tarqatilayotgan qo'poruvchilik ruhidagi axborotlar orqali ba'zan harbiy harakatlar evaziga amalga oshirib bo'lmaydigan maqsadlarga ham erishish mumkin. Bunday axborot xurujlari esa yoshlarning ma'naviy-axloqiy, psixologik dunyoqarashini, siyosiy nuqtai-nazari va e'tiqodini maqsadli ravishda o'zgartirishga qaratilganligini unutmash kerak. Buning asosiy sabablaridan biri esa tajovuzkorlikni targ'ib etuvchi tele, radio, audio, video va multimedia mahsulotlari, internetdagi ma'lumotlar, kompyuter o'yinlarining ko'payib borayotgani, xilma-xil usullarda tarqatilayotganidir. Ularning barchasi bolalar va yoshlarni psixik va psixoemotsional holatiga bosim o'tkazish, ularni zimdan boshqarish axboriy-psixologik ta'sir o'tkazishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Otamuratov R., Otamuratova S. INTERNETNING SHAXSGA TA'SIRI MUAMMOSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. – 2023. – Т. 3. – №.

2. Qizi I. M. U. ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA VA INTERNETNING INSON ONGIGA TA'SIRI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. A2. – С. 134-136.

3. Rahmatova E. F., Yo'ldosheva S. F. GLOBALLASHGAN DAVRDA INTERNETDAN CHEKSIZ FOYDALANISHNING YOSHLARGA SALBIY TA'SIRI //PEDAGOG. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 635-637.